

“XAMSAT UL-MUTAHAYYIRIN” ASARIDAGI BA’ZI MAKTUBLAR TAHLILI

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

dilshodaabdusalomovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiyotida maktub janrining “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida ham o‘z ifodasini topganligi, ushbu asarda maktublarning mazmun mundarijasi, real-tarixiy voqealar, ustoz-shogird munosabatlari, adabiyotshunoslikka oid fikrlar tahlili berilgan. Navoiy maktubotlarga maktub yo‘llovchining tavoze’sini, madaniyati hamda nozik did sohibi ekanligini, butun etikasini bildiruvchi janr sifatida baholaganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “Xamsat ul-mutahayyirin”, maktub, ruq’a, sog‘inch ruhidagi maktublar, tasavvufiy ruhdagi maktublar, adabiyotshunoslikka doir fikrlar ifoda etilgan maktublar, maslahat va nasihat ruhidagi maktublar, xabar-hamdardlik mazmunidagi maktublar, “Daryoi abror”, “Lujjat ul-asror”, “Tuhfat ul-afkor”, Navoiy – publisist.

ANALYSIS OF SOME LETTERS IN THE WORK “KHAMSAT AL-MUTAHAYYIRIN”

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna,

Doctoral Candidate at Samarkand State Pedagogical Institute

Annotation. The article examines how the epistolary genre in Uzbek literature is also reflected in the work *Xamsat ul-mutahayyirin* by Alisher Navoiy. It analyzes the content and structure of the letters presented in this work, including real historical events, teacher–disciple relationships, and literary-critical views. The study highlights that Navoiy evaluated letters as a genre that reflects the sender’s humility, culture, refined taste, and overall ethical character.

Keywords: *Xamsat ul-mutahayyirin*, letter, *ruq'a*, letters expressing longing, letters with a Sufi spirit, letters containing literary-critical reflections, letters in the spirit of advice and guidance, letters expressing *news and sympathy*, *Daryoi abror*, *Lujjat ul-asror*, *Tuhfat ul-afkor*, *Navoiy as a publicist*.

АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ПИСЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИИ

“ХАМСАТ УЛ-МУТАХАЙЙИРИН”

Эргашева Дилшода Абдусаломовна,

докторант Самаркандского государственного

педагогического института

Аннотация. В статье рассматривается отражение эпистолярного жанра в узбекской литературе на примере произведения “Хамсат ул-мутахаййирин” А.Навои. В работе анализируются содержание и структура писем, представленных в данном произведении, реальные исторические события, отношения учителя и ученика, а также литературоведческие взгляды. Подчеркивается, что Навои рассматривал письма как жанр, отражающий скромность отправителя, его культуру, утончённый вкус и в целом его этические качества.

Ключевые слова: “Хамсат ул-мутахаййирин”, письмо, *рукъа*, письма с мотивами тоски и разлуки, письма в суфийском духе, письма с литературоведческими размышлениями, письма в духе совета и наставления, письма с содержанием известий и сочувствия, “Дарёи аброр”, “Лужжат ул-асрор”, “Тухфат ул-афкор”, *Навои-публицист*.

“Хамсат ул-мутাহаййирин” asari o‘ziga xos ifoda usulida yozilgan bo‘lib, asar turkiy tilda yozilgan bo‘lsa ham undagi ba’zi o‘rinlar, ya’ni maktublar matni, she’riy

iqtiboslar forsiy, duolar esa arab tilida berilgan.¹ Ushbu asar Navoiy va Jomiy shaxsiyati hamda ilmiy merosini o'rganishda qimmatli manbadir.

Asardagi maktublarni o'rganish nega muhim?

- A) ikki buyuk ijodkorning ustoz-shogird munosabatini o'rganishda;
- B) Navoiy yashagan ijtimoiy muhitni real tasavvur qilishda;
- C) Navoiy ichki dunyosini, qalb kechinmalarini real voqealar asosida qayta kashf etishda.

“Xamsat ul-mutahayyirin” asari muqaddima, uch maqolat va xotimadan iborat. Uning ikkinchi maqolatidan ikki buyuk shoir, ikki millatning kamtar fidoyilari A.Jomiy va A.Navoiylarning 15tadan jami 30ta bir-biri bilan yozgan maktublar va maktublar bilan bog'liq 13ta hikoyat o'rin olgan bo'lib, muallif ushbu asarda “Ul hazrat bila bu faqir orasida o'tgan ruq'alar bobidakim, ul ruq'alar holo alarning kulliyotida mazkurdur va munshaotlar orasida masturkim, bu faqir javob bitibmen yo aksi” deya qayd etib o'tgan.

“Xamsat ul-mutahayyirin” asaridagi maktublarda sharqona tarbiya, tavoze', ilmga ixlos va muhabbatni ko'rish, ibrat olish mumkin. Navoiyning “Koshifi sirri Iloh”² bo'lgan ustoziga ehtiromi juda baland edi. Jomiy va Navoiy yozishmalari adabiyotshunoslikka doir masalalarni, tasavvuf tarannumlarini o'zida aks ettirishi bilan ham boshqa maktubotlardan farqlanib turadi. Bu tarannumlarni esa sovet davrida to'laligicha tahlil etilishi mushkul masala edi. Bu haqda olim Muhammadjon Imomnazarov shuni ta'kidlaydi: “1937-39 yillar qatag'onlari va “sotsialistik realizm” deb atalgan yangi proletar zo'raki joriy qilingan yakka hokimligi oqibatida o'zbek adabiyoti tarixiy ildizlaridan uzilib qoldi, o'tmish adabiyoti yaxshi-yomonga “progressiv” va “reaksion”ga ajratildi”.³ Jomiy va Navoiyning ustoz-shogirdligi rishtalari nafaqat sharqona estetik intizom doirasida edi, balki ruhiy yaqinlik jihatidan, maslak birligi jihatidan ham o'zaro hamohang edi. Ular ruhiyatidagi bu yaqinlik sarchashmasi islom dini bag'ridagi bitta o'zandan ozuqa olgan. Bu o'zan har ikki

¹ Alimov O., “Xamsat ul-mutahayyirin” asarining qiyosiy-matniy tadqiqi” PhD dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2023-yil.

² Navoiy ustozlari Jomiyga “Xamsat ul mutahayyirin”da shunday ta'rif beradi.

³ Имомназаров М. Навоийшунослик ва жаҳон маданияти. Мулоқот. -1991.-№9.

shoirning ibratomuz munosabatlari, ayniqsa, ushbu munosabatlarni o'zida jam etgan "Xamsat ul mutahayyirin" asarida o'z ifodasini topgan.

Asardagi maktublarni o'qir ekanmiz, ularni quyidagi turga bo'lish mumkin:

- 1) sog'inch ruhidagi maktublar;
- 2) tasavvufiy ruhdagi maktublar;
- 3) adabiyotshunoslikka doir fikrlar ifoda etilgan maktublar;
- 4) maslahat va nasihat ruhidagi maktublar;
- 5) xabar-hamdardlik mazmunidagi maktublar.

Masalan, Navoiy **bir maktubda** shunday deydi: *"Фақир ул вақтдаким, мулозаматга машғул эрдим — доим ул Ҳазратга махласим бобида илтимослар қилур эрдим. Алар ҳар навъ сўз била фақирга таскин берур эрдилар"*.¹ Navoiy ham bir maslahatgo'yga barcha inson singari mushtoq bo'lgan, shu sababdan Jomiyga o'z maktublarida "maxlasi bobida iltimoslar qilur erdi". Jomiy ustoz sifatida nafaqat maslahat beruvchi, taskin beruvchi ham bo'lgan.

Navoiy shunday deydi: *"Bir kun Murg'ob navohisida (hududida) erkonda mulozamat mashaqqat va ishlar ko'pligi sababli faqir qiynalgan"*. Ul zot xizmatiga bir kishini yuborib, ruq'aga quyidagi ruboiyni taqdim qilgan:

То кай чу сабо ҳар тарафам жилвагари,

Хоҳам суи сарви худ кунам пайсипари,

Фаръёдкунону хок бар сар фиғанон

*Гўям ки халосам кун аз ин дарбадари.*²

Mamuni:

Qachongacha eldek har tomondan jilva qilay?!

O'z sarvim tomon elib yugirishni xohlayman.

Faryod qilib, boshimga tuproq sochib,

Qutqar meni bu darbadarlikdan deymen.

Ushbu maktubni tahlil qilar ekanmiz, maktubda shoir o'z piri tomon intiladi, ruhiy izlanadi, najot topishni istaydi. Jomiy esa ushbu maktubga tubandagicha javob

¹ Навоий А., Хамсат ул-мутаҳаййирин. 24-бет. www.ziyouz.com кутубхонаси.

² Навоий А., Хамсат ул-мутаҳаййирин. 24-бет. www.ziyouz.com кутубхонаси.

bitgan: “Алар насиҳат юзидин мавъизаомиз руқъа битиб, бу рубоийни айтиб эрдиларким,

*Аз дидаи жон агар ба жонон нигарӣ,
Аз тафриқаи жаҳон кучо гусса хӯри,
Ин тафриқа ҳаргиз чун нагардад сипари,
Бо тафриқа жам бош, то баҳра бари.”¹*

Ҳақиқатан,

*Агар jononga jon ko 'zi bilan boqsang,
Jahon bevoshligidan (nizolaridan) g'am chekarmi erding?
Bu nizolar hech qachon tugamaydi,
Nizolar sabab yig'nok (aqli jam) bo'l, toki bahra topgaysan.*

Ustoz-shogird o'rtasidagi sog'inch mazmunida bitilgan maktub so'nggida ham Jomiy Navoiyga xalq dardiga malham bo'lish kerakligini eslatgan. Masalan, Navoiy Marvda vaqtida ekanligida Jomiyga shunday maktub yo'llaydi:

*То дур ғитода сарам аз хоки дарат,
Ҳар рӯз диҳам ба номае дарди сарат,
Беҳуд гардам чу нома ояд зи барат
Ман беҳабар аз нома, чи донам хабарат*

(Tarjimasi: boshim eshiging tuprog'idan uzoqlashgandan beri, har kuni biror xatni boshing og'rig'i qilaman. sendan noma kelganida, qanday xabar keltirar ekan, deb behud bo'laman.)

Ushbu ruboiy maktubga ustози shunday javob yozadi;

*3-on дам ки ғитод иттифоқи сафарат,
То бу ки кунам гаҳе ба хотир гузарат,
Гар мурғ парад ба сӯи ту ё бод вазад,
Хоҳам ки диҳам ба номае дарди сарат*

(Ya'ni, safarga jo'nagan paytingdan buyon, yodimga tushganing sari har tarafni iskab ko'raman. agar sen tomoningga qush uchsa, yohud shamol essa, biror nomani boshing og'rig'i qilishni istayman.)

¹Навоий А., Хамсат ул-мутаҳаййирин. 24-бет. www.ziyouz.com кутубхонаси.

Yozishmalar davom etar ekan, Jomiy mazmunan sog'inch mazmunidagi ruq'adan nasihat ruhidagi ruq'a bitishga o'tadi va quyidagi ikki baytni yo'llaydi:

*Жуз ин коре мабодат гоҳу бегоҳ,
Ки дар зилли залили, давлати шоҳ,
Хати ҳаззи худаз дил бартароши,
Барон ҳақ паноҳи халқ боши.¹*

Jomiy ushbu baytlarda Navoiyga o'z manfaatini chetga surib, xalq manfaati uchun xizmat qilish Haq uchun xizmat qilish ekanligini eslatadi. Navoiyga Jomiyning ushbu maktubi nihoyatda manzur bo'lganidan shunday javob yo'llaydi:

*Саломе, к-аш чу мурғи жон сарояд
Чу Рухуллаҳ равонбахши намояд,
Ҳама алфозаш аз айни мувосо
Чу нутқи Аҳмади мурсал дилосо.*

Navoiy maktubotlarga shunchaki xabar etkazuvchi mujda sifatida qaramagan. Arab va forsiylarning maktublaridagi badiiyatga, fasohatga havas bilan qaragani sabab, maktubni maktub yo'llovchining etikasini, tavoze'sini, madaniyati hamda nozik did sohibi ekanligini bildiruvchi janr sifatida baholagan va bunga o'zi ham amal qilgan. Yuqoridagi masnaviy ruq'ada Navoiy Jomiyga shunday murojaat qiladi: *sen yuborgan salom jon qushi kabi sayraydi, saloming Ruhullohdek jon bag'ishlaydi, ruhimga yaqin tasallilaring go'yo payg'ambar so'zidek shunday yoqimli.* Navoiy ushbu javobida Ruhullah, Ahmad so'zlari orqali **talmeh san'atini** yuzaga keltirgan bo'lib Iso va Muhammad payg'ambarlarga ishora qilish orqali ustoziga o'z hurmat va muhabbatini izhor ham etmoqda.

Ushbu asardagi maktublarni bir-bir o'qir ekanmiz, unda adabiyotshunoslikka doir **nazirachilik** borasidagi fikrlarga ham duch kelamiz: *“Bir kun ul Hazrat xizmatida erdim va har nav' nazmdin so'z o'tar erdi. So'z asnosida Mir Husravning (Husrav Dehlaviy) “Daryoi abror” otlig' qasidasi mazkur bo'ldi (tilga olindi). Bu faqir go'yo*

¹ Shoh davlatining soyasida
Ertayu kech shundan boshqa ishing bo'lmagay.
O'z manfaating sabzasini ko'ngildan yulib tashlab,
Haq uchun xalqning panohi bo'lgaysan.

aning ta'rifida mubolag'a qildim va muhiq erdim (ya'ni asosli maqtadim). Nevchunkim, Mir Xusravdek kishidin mundoq mashhururkim, demish bo'lg'aykim: "agar aflok havodisi va ro'zgor navoibidin mening borcha nazmim zamona sahifasidin mahv bo'lsa va bu qasidam qolsa menga basdur, nevchunkim, har kishi ani o'qusa bilurkim, nazm mulkida mening tasarruf va iqtidorim ne martabada erkandur". Ammo necha dog'i mundoq bo'lsa, bu faqirdin ul Hazrat majlislarida ta'rifda ifrot (me'yordan oshish) munosib ermas erdi. Ul Hazrat hech nima demadilar, to majlis tarqadi. Hamul vaqtda podshoh Marv qishlog'iga ozim (yo'l olmoq) bo'ldilar. Ittifoqo, necha kundan so'ngra azimat bo'ldi: faqir ul Hazrat (Jomiy)din ijizat tilay (uchun) xizmatlariga bordim. Istijozadin (ruxsat so'rash) so'ngra fotiha o'qub, ruxsat berdilar. Dog'i qo'lyozmalaridin bir juz (qism) chiqorib, faqirg'a inoyat qildilar. Olib ochtim, ersa "Daryoi abror" javobi "Lujjat ul-asror" erdiki, hamul kunlarda aytib erdilar. Har kishi o'qusa bilurki, "Daryoi abror" din **yakdastroq va ranginroq**. Niyozmandliq qilib, quloq tutub, otlanib, manzilg'a tavajjuh qildim (yo'l oldim) va manzil to'qquz rabot erdi. Ot ustida qasidani o'qub, xushholliq bila borurda xayolg'a "Tuhfat ul-afkor" qasidasining **matla'i** keldi. Manzilg'a tushgandin so'ngra bitib, bir bekdin ul Hazrat xizmatlariga yiborildikim (ya'ni manzilga etgach, uni yozib, bir bek orqali Jomiy hazratga yubordim), agar tugaturg'a loyiq bo'lsa va ishorat bo'lsa, mashg'ulluq qilayin, yo'q ersa xayr (Agar tugatishga arzisa, ijizat bering, davom etay. Yo'qsa to'xtayman). Ul Hazrat ruq'alarida ta'riflar qilib, mubolag'alar aytib erdilarkim, "albatta tugatsun", deb.

Faqir Marvg'a borguncha ani ul Hazrat otig'a tugattim (Jomiyga atab yozganini aytmoqda) va Marvdin ul Hazrat xizmatlariga bitib yiborildi". Navoiy ba'zi o'rinlarda yozishmalarning aynan o'zini keltirmaydi, balki tafsilotini beradi, izohlar beradi. Shu jihati bilan ham "Xamsat ul-mutahayyirin" asaridagi maktublar "Munshaot"dagi maktublardan biroz **farq** qiladi. Chunki "Munshaot" xatlar to'plami bo'lgani bois maktublar aynan keltirilgan. Navoiy yuqorida keltirilgan yozishmalar tafsilotidan so'ng "Daryoi abror", "Lujjat ul-asror", "Tuhfat ul-afkor" matlalaridan keltirib o'tadi hamda o'z qalamiga mansub 99 baytlik "Tuhfat ul-afkor" haqida shunday ma'lumotni ham

berib o'tgan: *“Бу таърихда ғаробат (ажойиб) ¹ борким, таърихнинг ой ва кунининг зикридин йили ҳисоби “жумал қоидаси” била ҳосил бўлур”*. Yuqoridagi she'rdan Navoiy keltirgan tarix arab yozuvidagi “yavmi jome' shahri rajab” jumlasida harflardan abjad hisobida 880/1475-yil chiqishligini shoir mazkur asarida **ta'kidlab o'tadi**. “Jumal qoidasi” esa mumtoz adabiyotdagi tarix san'ati bo'lib, harflarning son miqdorini qo'shish orqali chiqariladigan **“abjad hisobi”**dir.

Tahlil jarayonida shunday xulosaga keldik: asardagi maktublarni, maktubot tafsilotlarini o'qir ekanmiz, bu orqali Navoiyning ustoziga bo'lgan adabi, ustozning shogirdga nozik ishorasi, ustoz-shogirdlik ana'anasi, nazirachilik an'alariga, real tarixiy voqealarga guvoh bo'lamiz. Navoiy maktublari va bergan izohlari orqali o'sha davr muhitini his etamiz.

“Xamsat ul-mutahayyirin”ning ikkinchi maqolatiga yozishmalarni to'plab jam etgani, “Munshaot” nomli maktublardan iborat alohida bir kitob tuzgani Navoiyning sharq adabiyotshunosligida o'rta asrlarda mashhur bo'lgan va ommalashgan ushbu janrga befarq bo'lmaganini va uning rivojiga o'z hissasini qo'shganini isbotlaydi.

Adibning “Xamsat ul-mutahayyirin” asaridagi maktublar orqali o'zi guvoh bo'lgan voqealarni aniq va ravon ifodalashi asarning ahamiyatini, qimmatini oshirgan. Maktublar va u bilan bog'liq hikoyalar tavsifi shunday xolislik bilan berilganki, muallifning nuqtayi nazari etakchi planga chiqib ketmagani bois erkin mushohadaga berilasiz. Shu o'rinda Navoiyning tengi yo'q shoir yoki yozuvchigina emas, balki o'ta mahoratli publisist ekaniga ham guvoh bo'lamiz.²

Tadqiqotimiz davom etar ekan, keyingi maqolalarimizda Navoiyning ushbu asarida mavjud maktubida tasavvufiy qarashlar o'z ifodasini topgan o'rinlarga ham, albatta, to'xtalib o'tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулхайр М., Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2018.

¹Абдулхайр М., Навоий асарларининг изоҳли луғати.Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2018 йил, 441-бет.

² Олимов Ф. “Хамсат ул-мутахаййирин” асарида Жомий образининг яратилиши, мақола. The second international conference Science and Society, 103-bet, 2017-yil.

2. Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Т.: «Фан» нашриёти. 1989.
3. Навоий А., Хамсат ул-мутаҳаййирин. www.ziyouz.com кутубхонаси.
4. Олимов Ф. “Хамсат ул-мутаҳаййирин” асарида Жомий образининг яратилиши, мақола. The second international conference Science and Society, 103-bet, 2017-yil, 17-noyabr.
5. Очилов Э. Жомий Навоий идеалидаги комил инсон. Қуйидаги китобда: Жомий ва ўзбек адабиёти. – Т.: «Мовароуннаҳр» нашриёти. 2005.
6. Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Т.: «Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи». – 2010.
7. Имомназаров М. Навоийшунослик ва жаҳон маданияти. Мулоқот. -1991.- №9.
8. Исҳоқов Ё. Икки жаҳон халқига ҳайрат. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси. 2001 йил, 9 февраль.
9. Alimov O., «Xamsat ul-mutahayyirin» asarining qiyosiy-matniy tadqiqi» PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – Т.: - 2023.